

O‘ZBEK VA ARAB TILLARI KONTEKSTIDA TIL O‘RGANISH JARAYONINING LINGVISTIK VA METODIK MUAMMOLARI

G‘aniyev Akmaljon Usarovich

Oriental Universiteti, Filologiya fanlari fakulteti,
Lingvistika (arab tili) kafedrası,
Toshkent, O‘zbekiston.

E-mail: akmal91ganiev@gmail.com

Ilmiy rahbar: Bultakov Ikrom Yusupovich

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Oriental Universiteti, Filologiya fanlari fakulteti,
Lingvistika (arab tili) kafedrası,
Toshkent, O‘zbekiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilida so‘zlashuvchi auditoriya uchun arab tilini o‘rganish jarayonida uchraydigan lingvistik va metodik muammolar tahlil qilinadi. Arab va o‘zbek tillarining fonetik, morfologik, sintaktik va leksik tizimlari o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanib, ularning til o‘rganish samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Mavjud o‘quv-uslubiy materiallarning moslashtirilmaganligi, talaffuzdagi murakkab tovushlar, so‘z yasash tizimidagi farqlar hamda dars jarayonida madaniy komponentlarning yetarli darajada e’tiborga olinmasligi asosiy muammo sifatida ko‘rsatilgan. Tadqiqot davomida lingvodidaktik va qiyosiy-lingvistik tahlil usullari asosida til o‘rgatish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqildi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosidagi metodik yondashuvlarning roli baholandi.

Kalit so‘zlar: Arab tili, o‘zbek tili, fonetik tafovutlar, morfologik tizim, qiyosiy tilshunoslik, til o‘rganish metodikasi, lingvodidaktika, talaffuz muammolari, madaniyatlararo kommunikatsiya.

ABSTRACT

This article explores the linguistic and methodological challenges faced by Uzbek-speaking learners in acquiring the Arabic language. It examines the phonetic, morphological, syntactic, and lexical differences between Arabic and Uzbek, highlighting how these disparities affect language acquisition efficiency. Key issues identified include the lack of adapted instructional materials, the complexity of Arabic phonemes, differences in word formation systems, and the limited inclusion of cultural components in classroom settings. The research employs linguodidactic and comparative linguistic analysis methods to develop practical recommendations aimed

at improving teaching outcomes. Furthermore, the role of modern, technology-enhanced teaching approaches is critically assessed.

Keywords: *Arabic language, Uzbek language, phonetic differences, morphological system, comparative linguistics, language teaching methodology, linguodidactics, pronunciation issues, intercultural communication.*

KIRISH

XXI asrda globallashuv va transmilliy madaniy aloqalarning jadallashuvi natijasida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj jahon miqyosida ortib bormoqda. Ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy va dini qadriyatlar bilan boy arab dunyosiga bo'lgan qiziqish ortishi arab tilini o'rganish masalasini dolzarb muammolardan biriga aylantirdi. BMTning 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, arab tili dunyoda 420 milliondan ortiq inson tomonidan so'zlashiladigan, 26 davlatda rasmiy maqomga ega bo'lgan, shuningdek, Islom dini asosiy manbalarining tili bo'lgan xalqaro muhim tillardan biridir. O'zbekistonda ham arab tilini o'rganishga qaratilgan e'tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2023-yilda Respublikadagi diniy ta'lim muassasalari, oliy o'quv yurtlari va nodavlat til markazlarida arab tilini o'rganuvchilar soni 35 mingdan oshdi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hisobotiga ko'ra). Shu bilan birga, o'rganish jarayonida yuzaga kelayotgan fonetik, grammatik, semantik va metodik muammolar ushbu sohaga alohida ilmiy e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Arab tili va o'zbek tili o'rtasidagi tipologik tafovutlar, xususan fonetik va morfologik tizimdagi tub farqlar, o'quvchilarda talaffuz va yozuvda, ayniqsa so'z yasash va fe'l zamonlarida muammolar keltirib chiqarmoqda. Arab tilidagi noaniq talaffuzga ega tovushlar ([ع], [غ], [ق]) o'zbek tilida mavjud emasligi sababli, o'rganish jarayonida fonetik to'siqlar yuzaga keladi. Bundan tashqari, arab tilining ildiz asosida yasaluvchi morfologik modeli o'zbek tilidagi affiksallik modeldan farq qilgani sababli, grammatik moslashuvni talab qiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'zbek tilida so'zlashuvchi auditoriyaga mo'ljallangan arab tili o'qitish metodikasini ishlab chiqish, lingvistik asoslar bilan boyitilgan holda taklif etish orqali o'rganish samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois, arab va o'zbek tillarining lingvistik strukturasini tahlil qilish, metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali bu jarayonni optimallashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Arab tilini o'zbek auditoriyasiga samarali o'rgatish masalasi tilshunoslik va didaktika nuqtai nazaridan ko'plab tadqiqotlar markazida turibdi. Til o'rganish jarayonida yuzaga keladigan fonetik, grammatik va semantik tafovutlar, madaniyatlararo tafakkurning farqlari, shuningdek, metodik moslashuv zaruriyati

dolzarb mavzuga aylangan. Arab va o'zbek tillarining til strukturalari o'rtasidagi farqlarni chuqur tahlil qilish ularni o'rgatish jarayonidagi muammolarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fonetik tizimdagi o'ziga xos tovushlar, morfologik yasallishdagi farqlilik, gap tuzilmasidagi sintaktik tafovutlar hamda leksik birliklarning semantik yuklamasi arab tilini o'zbek tilida so'zlashuvchi o'rganuvchilar uchun sezilarli qiyinchiliklar tug'diradi.

Quyidagi jadvalda arab va o'zbek tillari o'rtasidagi asosiy lingvistik xususiyatlar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirilib, bu tafovutlarning o'quv jarayoniga qanday ta'sir qilishi ifodalangan:

1-Jadval :Arab va o'zbek tillarining lingvistik tizimlari qiyosiy tahlili

Til darajasi	Arab tili xususiyati	O'zbek tili xususiyati	Farqlarning ta'siri (til o'rganishga)
Fonetik	Ayn (ع), G'ayn (غ), Qof (ق) kabi tovushlar mavjud; og'iz bo'shlig'ida kuchli artikulyatsiya	Bu tovushlar mavjud emas; yumshoq talaffuzga ega	Talaffuz qiyinlashadi, fonetik moslashuv talab etiladi
Morfologik	So'z yasallishi ildizlarga asoslanadi (3 harfli ildizlar asosida); fe'l zamonlari ko'p	Affiksial yasallish; zamonlar soddaroq	So'z yasallishini tushinishda va o'rganishda murakkablik
Sintaktik	Gap tuzilmasida fe'l odatda boshda (VSO tartib)	O'zbek tilida odatda ot + fe'l (SOV tartib)	Gap tuzishda adashish; tarjimada grammatik xatolarga olib keladi
Leksik	Ko'plab diniy, falsafiy so'zlar; ko'p ma'nolilik keng tarqalgan	Arab tilidan o'zlashgan leksik birliklar mavjud; lekin konnotatsiyasi farqli	Tarjimada semantik noaniqliklar va chalkashlik yuzaga keladi
Madaniy kontekst	Diniy-islomiy dunyoqarash, so'zlar ijtimoiy rolda	Sekulyar yoki milliy o'zbek madaniyati bilan uyg'un	So'zlar pragmatik qiymati tushunilmay qolishi mumkin

Avvalo, arab va o'zbek tillari strukturaviy jihatdan ikki xil til oilasiga mansubligi sababli, ular o'rtasida muhim morfologik va sintaktik tafovutlar mavjud. Abdurahmonov (2015) o'z tadqiqotida arab tilining ildizga asoslangan morfologik tizimini tahlil qilib, o'zbek tilidagi affiksial model bilan farqlarini ko'rsatadi. U, ayniqsa, so'z yasallishi va fe'l zamonlaridagi murakkabliklar haqida fikr bildiradi [1].

Phonetik darajadagi eng muhim to'siqlardan biri — arab tilidagi maxsus tovushlar bo'lib, ular o'zbek tilida mavjud emas. Al-Munajjid (2012) ayn, g'ayn, qof kabi tovushlar talaffuzida o'zbek tilida so'zlashuvchilar duch keladigan qiyinchiliklarni tahlil qiladi va ularni o'rgatish bo'yicha fonetik mashqlar tizimini taklif qiladi [2].Leksik darajadagi o'xshashliklar haqida Mamajonov (2020) arabcha

kelib chiqishli o‘zbekcha so‘zlarning semantik o‘zgarishini tahlil qilib, bu holatni ikki tilda shakllangan diniy va ilmiy uslub doirasi bilan izohlaydi. U til o‘zlashuvining tarixiy va madaniy jarayonlarini chuqur tahlil qilgan [3].

Arab tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda kommunikativ metodik yondashuvlar haqida Cohen va Rosenberg (2019) o‘z tadqiqotida yangi interaktiv va multimedaviy usullarni sinovdan o‘tkazgan. Ular mobil ilovalar, suhbat mashqlari va multimodal materiallar yordamida o‘rganish samaradorligini oshirishga urg‘u beradi [4].

Qiyosiy tilshunoslik metodlari asosida arab va o‘zbek tillarini tahlil qilish masalasi Jumaev (2017) tomonidan yoritilgan. Muallif ikki til grammatik tizimi va semantik birliklarini tahlil qilishda lingvistik xususiyatlar va madaniy kontekstlarning ahamiyatini asoslab beradi [5]. Tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan, V. Nida (1964) tomonidan ishlab chiqilgan “dynamic equivalence” konsepsiyasi arab tilidagi iboralar va diniy matnlarni o‘zbek tiliga mos tarjima qilishda samarali qo‘llanilishi mumkin [6]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (2023) hisobotlarida arab tiliga bo‘lgan talabning yillik o‘sishi, arab tili o‘rgatuvchi muassasalar soni va o‘rganuvchilar statistikasi keltirilgan. 2023-yil holatiga ko‘ra, respublikada 35 mingdan ortiq shaxs arab tilini o‘rganayotgani qayd etilgan [7].

METODOLOGIYA

Tadqiqotda qiyosiy-lingvistik, deskriptiv (tasviriy), analiz-sintez, statistik va lingvodidaktik tahlil uslublari qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil orqali arab va o‘zbek tillarining fonetik, morfologik va sintaktik tizimlari o‘rtasidagi farqlar aniqlanib, o‘rganishga ta’siri baholandi. Deskriptiv metod yordamida esa o‘quvchilarning o‘zlashtirish jarayonida kuzatilgan muammolar tizimlashtirildi. Shuningdek, mavjud o‘quv dasturlar va darsliklar asosida lingvodidaktik yondashuvlar tahlil qilinib, ular samaradorligi baholandi. Statistik ma’lumotlar asosida arab tilini o‘rganuvchilar soni va til o‘rganishga bo‘lgan talab dinamikasi ko‘rsatildi. Tadqiqot materiali sifatida arab va o‘zbek tilidagi darsliklar, lingvistik maqolalar, tarjima matnlari, hamda O‘zbekiston va xalqaro tillarni o‘rgatish markazlarining statistik ma’lumotlari foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida arab va o‘zbek tillari o‘rtasidagi lingvistik tafovutlar chuqur tahlil qilinib, ularning til o‘rganish jarayoniga ta’siri quyidagi yo‘nalishlarda aniqlashtirildi:

1. Fonetik tafovutlar – arab tilidagi maxsus undosh tovushlarning o‘zbek tilida mavjud emasligi o‘rganuvchilarning talaffuzda qiyinchilikka duch kelishiga sabab bo‘lmoqda.

2. Morfologik tizim tafovutlari – arab tilida soʻz ildizi asosida yasalgan murakkab feʼl tizimi oʻzbek tilidagi affiksial soʻz yasallish tizimidan tubdan farq qiladi.

3. Sintaktik tuzilma – arab tilida feʼl gap boshida kelishi, oʻzbek tilida esa odatda gap oxirida joylashishi grammatik moslashuvni qiyinlashtiradi.

4. Leksik darajadagi umumiylik va semantik tafovutlar – ayrim soʻzlarning maʼnosi ikki tilda turlicha konnotatsiyaga ega boʻlib, tarjimada yoki tushinishda chalkashlik keltirib chiqaradi.

5. Metodik yondashuvlar muvofiqligi – mavjud oʻquv qoʻllanmalarning ayrimlari oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar uchun moslashtirilmagan, bu esa dars jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Quyidagi 1-jadval asosida arab tilini oʻzbek auditoriyasiga oʻrgatishda uchraydigan asosiy lingvistik muammolar tasniflandi:

2-jadval. Arab tilini oʻzbek tilida soʻzlashuvchilarga oʻrgatishdagi asosiy lingvistik muammolar

№	Muammo turi	Tavsifi	Taʼsir doirasi	Tavsiya qilingan yondashuv
1	Fonetik	Ayn, qof, gʻayn tovushlarining talaffuzi qiyin	Talaffuz va eshitish qobiliyati	Maxsus fonetik mashqlar, audio darslar
2	Morfologik	Soʻz yasallish tizimining ildiz asosli boʻlishi	Feʼl yasallishi, zamon tushunchasi	Vizual jadval va sxemalar asosida oʻrgatish
3	Sintaktik	Gapdagi soʻz tartibining farqli boʻlishi	Gap tuzish va tarjima	Qiyosiy sintaktik tahlil asosida mashqlar
4	Leksik-semantik	Soʻzlarning konnotativ maʼnosi har xil boʻlishi	Tarjima va tushunish	Kontekst asosida semantik tahlil
5	Metodik	Moslashtirilgan darsliklar yetishmasligi	Oʻqitish samaradorligi	Oʻzbek tiliga mos metodik materiallar ishlab chiqish

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatdiki, arab tilini samarali oʻrgatishda faqatgina grammatika va lugʻat bilan cheklanib boʻlmaydi. Til oʻrgatish jarayoniga madaniy kontekst, fonetik tayyorgarlik, va lingvodidaktik yondashuvlar integratsiyalangan holda yondashilsa, bu oʻquvchilarning tilni anglash, talaffuz qilish va foydalanish darajasini sezilarli oshiradi. Tadqiqot natijalariga koʻra, metodik materiallarni oʻzbek tilida soʻzlashuvchi auditoriyaga moslashtirish, darsliklarda fonetik murakkabliklarga alohida boʻlim ajratish, va til oʻrgatishda multimodal (audio-video) resurslar bilan boyitilgan platformalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

XULOSA

O'zbek tilida so'zlashuvchi auditoriya uchun arab tilini o'rgatish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar fonetik, morfologik, sintaktik va leksik darajadagi lingvistik tafovutlar bilan bog'liq ekani aniqlashtirildi. Shuningdek, mavjud o'quv-uslubiy materiallarning yetarlicha moslashtirilmaganligi, fonetik va madaniy komponentlarning yetishmasligi o'quvchilarning tilni o'zlashtirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqotda arab va o'zbek tillarining strukturaviy tahlili asosida ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, bu asosda til o'rgatish metodikasini takomillashtirish bo'yicha muhim xulosalar berildi. Arab tilidagi talaffuzi murakkab tovushlar, ildizga asoslangan so'z yasalishi va gap tuzilmasining o'zbek tilidan farqli ekanligi o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazilishi uchun maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, arab tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar, vizual va audio materiallar, kontekstual mashqlar, qiyosiy tahlillarga asoslangan metodlar samarali ekani asoslandi.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Arab va o'zbek tillarining lingvistik tafovutlari asosida tuzilgan metodik yondashuv o'rgatish samaradorligini oshiradi;
2. Til o'rganishda fonetik va madaniy komponentlar yetarlicha e'tiborga olinishi kerak;
3. Moslashtirilgan darslik va multimodal o'quv platformalarini joriy qilish dolzarb vazifadir;
4. Arab tilini o'rgatishda qiyosiy-lingvistik yondashuv asosiy metod sifatida taklif etilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmonov, A. (2015). *Arab tilshunosligining asosiy yo'nalishlari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Al-Munajjid, J. (2012). *Fonetik to'siqlar va talaffuz mashqlari: Arab tilini chet elliklar uchun o'rgatish metodikasi*. Qohira: Doru al-Fikr.
3. Mamajonov, M. (2020). O'zbek tilidagi arabcha kelib chiqishli so'zlarning semantik o'zgarishi. *Filologiya masalalari*, 1(2), 45–51.
4. Cohen, D., & Rosenberg, M. (2019). Teaching Arabic through communicative approaches. *International Journal of Language Teaching*, 12(3), 89–103.
5. Jumaev, I. (2017). *Qiyosiy tilshunoslik asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill Academic Publishers.

7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2023). *Arab tili bo‘yicha o‘quvchilar soni va ta’lim muassasalari statistikasi*. Toshkent: Oliy ta’lim vazirligi matbuot xizmati.
8. Hasan, M. T. (2018). Comparative analysis of Arabic and Uzbek verb systems. *Journal of Comparative Linguistics*, 6(1), 55–63.
9. Karimov, S. (2021). Arab tilini o‘qitishda interfaol metodlar: tajriba va amaliyot. *Zamonaviy ta’lim*, 3(4), 28–34.
10. UNESCO Institute for Statistics. (2022). *Global Education Monitoring Report: Language and learning*. Paris: UNESCO Publishing.